

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA ILM FAN

*Abdumannonova Hurshidaxon Yusupovna
Farg'ona viloyati Beshariq tumani
Beshkapa qishlog'i 13- maktab
Tarix fani o'qituvchisi*

ANNOTATSIYA: Maqlolada Amir Temur bobomizning o'zbek davlatchiligi tarixida tutgan beqiyos o'rni xususida fikr yuritilgan. Shu bilan birga, uning XIV-XV asrda ikkinchi Renessans uchun shart-sharoit yaratib bergenligi ta'kidlab o'tilgan. Temuriylar sulolasining nafaqat hozirgi O'zbekiston, balki butun Yevroosiyo hududlarini o'z ichiga olgan ulkan va qudratli davlatni tuzishga muvaffaq bo'lganligi, shuningdek, Amir Temur, uning avlodlari Mirzo Ulug'bek, Boysung'ur Mirzo, Husayn Boyqaro, Bobur Mirzo kabi shoh va shahzodalar, temuriy malikalar Temuriylar ma'naviyati poydevorini o'zlarining ilm-ma'rifatga bo'lgan hurmati tufayli mustahkamlab borib, bu yo'lida o'z hisoblaridan ko'plab qurilishlar va tashkiliy-moliyaviy ishlarni amalga oshirganliklari e'tirof etilgan.

KALIT SO'ZLAR: Amir Temur, ilm-fan, ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat, tafakkur, taraqqiyot.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 1 oktabr Ustoz va murabbiylar kuni munosabati bilan yo'llagan tabriklarida "Biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak", deb ta'kidladilar. Shu yo'sinda O'rta Osiyoda va butun Sharq olamida sodir bo'lgan birinchi va ikkinchi Renessans mohiyatini va shart-sharoitlarini chuqur anglab yetishimiz zarur. Eng avvalo, Amir Temur bobomizning o'zbek davlatchiligi tarixida tutgan beqiyos o'rnlari bilan birga, XIV-XV asrda ikkinchi Renessans uchun shart-sharoit yaratib bergenligini ta'kidlash joizdir.

Temuriylar davlati nafaqat hozirgi O'zbekiston, balki butun Yevroosiyo hududlarini o'z ichiga olgan ulkan va qudratli davlatni tuzishga va eng asosiysi, bu yerda yashagan 72 millatni birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Mo'g'ullar iskanjasidan xalos etish barobarida parchalanib ketgan Markaziy Osiyo va Kavkaz mamlakatlarini birlashtirib, jahon silsilasida ulkan qudratli mamlakatni barpo etishdek buyuk tarixiy missiyani bajardi. Shuni ta'kidlash kerakki, aynan Amir Temurning siyosiy kurash maydoniga kelishi va Markaziy Osiyoda yashaydigan xalqlarni birlashtirishi Yevroosiyo mintaqasida turli ilmiy va madaniy maktablarning qo'shilishiga va turli

kashfiyot va uslublarning yuzaga kelishiga zamin yaratdi. O'rta Osiyoda sharq ilmiy tafakkuri umumlashib, uyg'unlashib, bir-birining eng ilg'or taraflarini olib, yangi taraqqiyot cho'qqisiga ko'tarildi, Amir Temur va temuriylar davri o'ziga xos ilmiy va falsafiy tafakkuri paydo bo'ldi, ilm-fan uyg'unlashuvi kuchaydi, bir so'z bilan aytganda, baynalminal ko'prik o'rnatildi. 27 davlatni o'z ichiga birlashtirgan Ovrupa va Osiyo hududida tashkil topgan ulkan sultanatda tinchlik-xotirjamlikning o'rnatalishi, tashqi xavf-xatarlarning bartaraf etilishi, mamlakatdagi keng obodonchilik ishlarining yo'lga qo'yilishi, ilm-fan va ma'naviyatga e'tibor davlat va jamiyat hayotida muhim burilishlarni boshlab bergen. Amir Temurning homiyligi va rahbarligi ostida o'sha davrning mashhur va bilimi o'tkir olimu ulamolari, usta quruvchilar, din peshvolari, tabiblar va boshqa o'z kasbining ustasi bo'lgan mutaxassislar Samarqandga taklif etildi. Samarqandda o'sha davr dunyosining eng yirik kutubxonalari va madrasalari bunyod etildi. Temuriylar sultanatining olimlari bu yerda ilmiy izlanishlar bilan qizg'in shug'ullana boshlaganlar. Amir Temur va Temuriylar davlatining markazi bo'lgan Samarqand Sharqning intellektual va madaniyat markaziga aylandi. Amir Temur o'z zamonasining yetuk bilimdoni bo'lishi bilan bir qatorda bir necha tilni bilganligi qayd etiladi. Sohibqiron o'z davrining mashhur olimlari bilan majlislarda o'tkazilgan bahs va munozaralarda ham donoligi va o'tkir bilimi bilan majlis ahlida bo'lgan olimu-fuzalolarni dovdiratib qo'ygan. Amir Temur diniy va dunyoviy ilmlarni mukammal egallagan bo'lib, majlisi olimu ulamolar bilan boshqarilar edi. Amir Temur tuzuklarida bu haqda ma'lumotlar ko'plab keltiriladi.

Amir Temur, uning avlodlari Mirzo Ulug'bek, Boysung'ur Mirzo, Husayn Boyqaro, Bobur Mirzo kabi shoh va shahzodalar, temuriy malikalar Temuriylar ma'naviyati poydevorini o'zlarining ilm-ma'rifikatga bo'lgan hurmati tufayli mustahkamlab bordilar va bu yo'lda o'z hisoblaridan ko'plab qurilishlar va tashkiliy-moliyaviy ishlarni amalga oshirdilar. Avliyolar avliyosi, shoirlarning sultonı Alisher Navoiy ijodiga ham o'sha davrning ilmiy-ijodiy muhitining ta'siri bo'lganligini anglab yetish mumkin. Amir Temur va temuriylar davri, umuman, Sharq, xususan, O'rta Osiyo ilm-fani, madaniyati, ma'naviyati, adabiyot va san'ati rivojida muhim bosqich, yangi tarixiy davr, burilishdir. Bu davr IX-XII asrlardagi ma'naviy-ma'rifiy hayotdagi ko'tarilish va yuksalishning mantiqiy davomidir. Boshqacha nom bilan bu davr "Oltin asr" deb ham yuritiladi. O'rta Osiyo xalqlari orasidan yetishib chiqqan buyuk tafakkur egalarining butun bir avlodи xuddi shu davrda shakllandi va ijod qildi. Bunga Amir Temur va Temuriyzodalarning ilm-fanni rivojlanishi uchun yaratib bergen shart-sharoit tufayli erishilgan, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Tarixdan ma'lumki, Samarqand shahriga o'z zamonasining eng yetuk olim va donishmandlari kelib o'rnasha boshlaganlar, shuni ham ta'kidlash kerak, Amir Temur vatemuriyzodalar davlatni boshqarishda bag'rikenglik nuqtai nazari bilan yondashuvi turli millat va din vakillarinig yonma-yon yashab, ilm va ijodkorlik bilan shug'ullanishi uchun imkon

yaratgan. Butun dunyoga nomlari mashhur tarixchilar Sharofiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy; olimlardan Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi, Qozizoda Rumiy; faylasuf-shoirlardan Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy; musavvirlardan Kamoliddin Behzod, Qosim Ali, Mirak Naqqosh; xattotlardan Sulton Ali Mashhadiy, Sulton Muhammad Xandon, Muhammad bin Nur va boshqalar shular jumlasidandir.

Ularning barchasi o‘sha davr va o‘zlarigacha bo‘lgan insoniyat ma’naviyati, ma’rifati va madaniyati yutug‘ining barcha sohalarini mukammal bilib, o‘zlashtirib olgan, o‘zları tanlagan sohalarining hali hech kim tomonidan zabit etilmagan cho‘qqilarini egallagan ulug‘ siymolar, qomusiy ilm egalari bo‘lganlar. Shuning uchun ham ularning boy, serqirra ijodlari, tengi yo‘q va takrorlanmas ilmiy-falsafiy, badiiy, tarixiy asarlari asrlardan-asrlarga o‘tib, zamon sinovlariga bardosh berib, bizlarga yetib keldi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bu uchun ulug‘ ajdodlarimiz tomonidan qoldirgan ma’naviy va madaniy me’rosni o‘rganish va uni kelajak avlod uchun saqlab qoldirish zarur. Jahon ma’naviyati va ma’rifati sahnida o‘z o‘rinlariga ega bo‘lgan komil ajdodlarimizni va ular qoldirgan boy ma’naviy-ma’rifiy merosni teran anglash, o‘rganish va ulug‘lash imkoniyati yuzaga keldi. Ota-bobolarimiz, xususan, buyuk davlat arbobi, ma’rifat homiysi, yuksak ma’naviyat egasi Amir Temur va uning avlodlari qoldirgan merosi bugungi kunda xalqimiz uchun ruhiy-ma’naviy poklanish va milliy o‘zlikni anglashning tunganmas chashmasidir. Zero, bugungi murakkab sharoitda yurtimizda boshlangan keng qamrovli islohotlar, yangi O‘zbekistonni barpo etish sari tashlayotgan dadil qadamlarimizning bardavom bo‘lishini ta’minlash eng asosiy vazifamiz bo‘lishi shart.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. 2020 yil “Ustoz va murabbiylar kuni” munosabati bilan yo‘llangan tabrik.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaati.
3. Usmonov Q. “O‘zbekiston tarixi”. Toshkent, 2016 yil.
4. "O'zbekiston tarixi", 7sinf. Darslik. 2021